



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI
SAMARQAND TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I**

140300, Samarqand t., Gulobod qo'rg'oni.

2021 - yil 17 - noyabr

70-7-103-Q/21

Samarqand tuman hokimligi

**Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining qirq beshinchi sessiyasini
chaqirish to'g'risida**

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1.Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining qirq beshinchi sessiyasi 2021-yilning 25-noyabr kuni soat 16:00 da tuman hokimligining majlislar zalida chaqirilsin.

2.Sessiyasi kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

"Hududgaz" Samarqand gaz ta'minot filiali boshlig'i S.Boboyev, Samarqand tumani Elektr ta'minoti korxonasi direktori A.Shukurov hamda " Samarqand suv ta'minoti" mas'uliyati cheklangan jamiyati Samarqand tuman filiali boshlig'i A.Fayziqulovlarning "Samarqand tumanida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni betalofat o'tkazish to'g'risida"gi hisobotlari haqida.

Samarqand tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i F.Usmonovning "Mahalliy budjet prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, hududning iqtisodiy o'sish nuqtalarini inobatga olgan holda qo'shimcha manbalarni aniqlash, soliq qarzlarini qisqartirish, ortiqcha to'lov larga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi hisoboti haqida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldag'i "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi

to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan Samarqand tumani Tadbirkorlikka ko‘maklashish markazi direktori N.Berdiyevning hisoboti haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5048-sonli “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 24-mart kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor majlisining 16-sonli bayonining 7-bandini ijrosini ta’minlash yuzasidan tumandagi sektor rahbarlari tomonidan yagona onlayn tizimiga ma’lumotlarni kiritilishi yuzasidan qilingan ishlari haqida Samarqand tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikasiyalar va communal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Islomov, Samarqand tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i J.Saidov hamda Samarqand tumani Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig‘i S.Aliyevlarning hisobotlari haqida.

Boshqa masalalar.

3.Ushbu qaror matbuotda e’lon qilinsin.

Туман ҳокими



Н.Мавлонов